



Linking technology subjects with science subjects

Nargiza NIYAZMETOVA¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

Keywords:

integration,
interactive approach,
modern education,
educational activity,
object,
effect,
success.

ABSTRACT

In modern world pedagogy, the emphasis in the education of young people is on limiting the acquisition of narrow professional knowledge in the specialty and on the development of broad integrative knowledge in general education subjects within the framework of the lifelong education system. A lot of significant work is being carried out aimed at using new pedagogical technologies in integrated learning in technological classes and at solving issues of educational and methodological support. This article analyzes the connection between technology subjects and scientific disciplines and their interaction with other subjects.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp142-144>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Texnologiya o'quv fani mavzularini tabiatshunoslik mavzulari bilan bog'lash

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

integratsiya,
interaktiv yondashuv,
zamonaviy ta'lim,
o'quv faoliyati,
ob'yekt,
samara,
muvaffaqiyat.

Ushbu maqolada texnologiya darslarida integratsiyalab o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llash, o'quv-uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar, shuningdek, texnologiya o'quv fani mavzularini tabiatshunoslik mavzulari bilan bog'lash va boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida so'z boradi.

¹ Teacher, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Связь технологических предметов с естественнонаучными дисциплинами

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интеграция,
интерактивный подход,
современное образование,
образовательная
деятельность,
объект,
эффект,
успех.

В современной мировой педагогике акцент в образовании молодежи делается на ограничение приобретения узких профессиональных знаний по специальности и на развитие широких интегративных знаний по общеобразовательным предметам в рамках системы непрерывного образования. Выполняется множество значимых работ, направленных на применение новых педагогических технологий в интегрированном обучении на технологических занятиях и на решение вопросов учебно-методического обеспечения. В данной статье анализируется связь предметов технологии с научными дисциплинами и их взаимодействие с другими предметами.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida texnologiya ta'limini integrativ o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning shakl va usullarini takomillashtirilsa u holda texnologiya ta'limini integrallab o'qitish asosida bilim berish samarasi yuqori bo'ladi. Texnologiya o'quv fani mavzularini tabiatshunoslik mavzulari bilan bog'lash deganda, avvalambor "Integratsiya" atamasiga to'xtalib o'tsak. "Integratsiya" atamasi nomi jihatdan yangi bo'lib, mazmun va mohiyati jihatdan tarixga ega. Aslida "integratsiya" so'zi lug'atda lotincha "tegragrac" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integr" – to'liq, butun, yaxlit) degan ma'noni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, integratsiya fanlararo bog'liqlik degan ma'noni anglatadi.

Texnologiya fani psixologiya, tarix, ona tili, tasviriy san'at, adabiyot, iqtisod va tabiatshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liq. Texnologiya o'quv fani mavzularini tabiatshunoslik mavzulari bilan bog'liqligi shundaki tabiat in'om etgan mahsulotlardan barglar, mevalar, po'stloq, urug'lar, daraxt shoxlari, parrandalarning patlari va loylardan har xil o'yinchoqlar, applikatsiyalar yasash mumkin. Texnologiya fanida o'quvchilar tabiatshunoslik faniga oid mahsulotlardan keng foydalanadilar. Texnologiya fanida o'z qiziqishlari, iqtidori va ruhiy jarayonlarini hisobga olgan holda quyidagi narsalarni yasash mumkin.



Texnologiya darslarda tabiat in'om etgan mahsulotlarning tutgan o'rnini nihoyat kattadir, chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval ularning yaroqliligi yoki undan qanday foydalanish lozimligi haqida bir fikrga kelib ijodiy yondashadi. O'quvchilar ana shu mahsulotlar orqali o'sha detal yoki buyum to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Ko'rinib turibdiki, bu rasm orqali o'quvchilarda har xil ijodkorona yondashuv va o'z istedodini yaratish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan ma'lumki, bunday ko'rgazmalarni yaratish oson ish emas. Ko'pgina o'quvchilar bunga oid yetarli ma'lumot va malakaga ega bo'lmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli o'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilarga buyumlarning texnik holati, eskizi, yaqqol tasviri, tabiat mahsulotlaridan foydalanishda ish ketma-ketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham tushuncha berib borishga to'g'ri keladi. Bu ko'plab o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklaydi. Texnologiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi bir necha yil oldin ilolsiz bo'lgan ta'lim imkoniyatlarini beradi. Texnologiya o'quvchilarga turli fanlarni chuqur tushunish imkonini beruvchi interaktiv va qiziqarli o'quv tajribasini yaratish imkoniyatiga ega fan hisoblanadi. O'qituvchilar o'z darslarini rejalashtirishda texnologiyani qabul qilishlari kerak va ular ta'lim texnologiyasidagi eng so'nggi ishlanmalarni o'rganishga harakat qilishlari lozim. Texnologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash o'quvchilarda ijodkorlikni, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini va jamoada ishlashni rivojlantirishga yordam beradi. U yanada interaktiv o'rganish tajribasini taklif qiladi va o'quvchilarni tobora fanga qiziqishiga turtki bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchilar o'quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlash uchun dars rejalariga texnologiya fanini boshqa fanlar bilan bog'lash strukturasi kiritishda davom etishlari zarur.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- fan o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin. Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarning ijodkorligini va qiziqishlarini ham e'tiborga olishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga umumta'lim maktablarida texnologiya ta'limi darslarida mavzularni o'qitishda va amaliy o'rgatish jarayonida albatta boshqa fanlar bilan aloqadorlik asosiy o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'.Abduqodirov, Kasb ta'limi praktikumi .T.: 2012. O'quv qo'llanma.
2. N.S. Sayidaxmedov, Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. 2003-y.
3. R.Mavlonova, R.Rahmonqulova, Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, – 2009.
4. U.Q.Tolipov, SH.S.Sharipov, "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar" "Fan" nashri 2012-yil.